



HARBIY TA'LIM MUASSALARIDA PEDAGOGIKA


Niyazov Erkin Shamsiyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Harbiy pedagogika va uning rivojlanish jarayoni mazmuniga mamlakatning tarixiy rivojlanish shart sharoitlari, ko'p vaqt davomida u yoki bu mamlakat armiyasining hal qiluvchi vazifalari, shaxsiy tarkibning milliy xususiyatlari va boshqalar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Harbiy ta'lim muassasasi rivojlantirishda yangi va ilg'or pedagogik menejment samaradorligini oshirish va ushbu jarayonning samarali tashkil etilishidabirnechta muhim omillar qay darajada ahamiyat kasb etishi va istiqboldagi samarali jihatlari haqida ilmiy fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogika, menejment, nizom, tarix, inson, mutafakkir, menejer, xizmat, bilim, ko'nikma.

XXI- asr globallashtirish, axborot texnologiyalar asri sifatida e'tirof etiladi. Gegemon davlatlar tomonidan o'zlarining siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun armiya saflarini yuqori aniqlikka ega qurollar bilan butlash, har tomonlama puxta tayyorlangan yuqori salohiyatga ega harbiy xizmatchilarni tayyorlash vazifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyoning turli burchaklarda urush o'chog'i kuzatilishi davom etmoqda. Jangovar harakatlar hamda qurolli to'qnashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy qurol-aslaha, jangovar texnikalar bilan birgalikda jangda g'alaba qozonishning asosiy omili bu, inson, ya'ni zamonaviy bilimlarga ega, yuqori vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan harbiy xizmatchilar ekanligi namoyon bo'lmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan harbiy kadrlarni tayyorlash tizimiga alohida e'tibor qaratilishi, so'zimizning yaqqol misoli ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilish mumkin. Harbiy ta'lim jarayonini tashkil etish, samarali natijalarga erishish sohadagi bugungi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qomondoni Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 13 yanvar kuni Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida: "Qo'shinlar istalgan





daqiqada o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi kerak. Ular jangovar tayyorgarlikning yangi tizimi bo'yicha muntazam shug'ullanib borishi, barchaharbiyxizmatchilar haqiqiy professional kadr bo'lishi uchun o'z sohasini puxta egallashi shart", - deb ta'kidladi. Buning uchun esa harbiy ta'lim jarayonini zamonaviy talablardan kelibchiqib tashkillashtirish lozim. Darhaqiqat, ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagog salohiyati bilan bir qatorda mashg'ulot moddiy ta'minotini sifati ham muhim. Pedagoglar va harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotga tayyorgarligi, o'zlashtirishi, bilim, ko'nikmalar bilan qurollantirilishida zamon talabidan kelib chiqib tayyorlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda yashar ekanmiz, kompyuter texnologiyalarini mukammal o'zlashtirgan, yuqori intellektual salohiyatga ega, bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bera oladigan, tegishli pedagogik kompetentsiyaga ega talabalarni tayyorlash davr talabiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi nafaqat yaxshi professional bilimlarini namoyon etishi, balki o'zi tanlagan faoliyat sohasida kasbiy bilimga ega bo'lishlari bilan bir qatorda yetarli darajada kasbiy kompetentsiyaga ega bo'lishi fundamental ta'limni ana shu asosda qurish imkoniyatiga ega bo'lish, yangi shartlarga muvofiq yangi konkret bilimlar, tegishli pedagogik kompetentsiyalarga ega bo'lishi ham talab etiladi. Harbiy ta'lim fakul'teti talabalarida pedagogik va harbiy kompetentsiyalar, ularning zarur turlari haqida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramasdan yagona bir to'xtamga kelinmagan. Shu o'rinda kompetentsiya, kompetentlik iboralarini yana bir bor tahlil qilishga harakat qilib ko'ramiz. E.G. Azimovga ko'ra, kompetentsiya - bu shaxsning qobiliyatini belgilaydigan xususiyatlari, fazilatlari o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarga asoslangan faoliyatni amalga oshirish mahorati deya e'tirof etadi.

Armiya o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'lganidan beri shaxsiy tarkibni o'qitish va tarbiyalash harbiy faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Ushbu tarkibiy qism o'z mazmuni bo'yicha amaliy harbiy pedagogika hisoblanib, harbiy xizmatchilarni har tomonlama jangovar harakatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishiga zaruriy, majburiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Dastlab harbiy pedagogika qo'mondonlar va bo'ysunuvchilarning amaliy faoliyati





sifatida paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan jangchilarni o'qitish va tarbiyalash haqidagi bilimlar to'planib, ular avloddan-avlodga afsonalar, rivoyatlar, maqollar, matallar tarzida yetkazilgan. Harbiy ishlarning murakkabligi, ayniqsa, davlatlarning shakllanishi, nisbatan ko'p sonli doimiy qo'shinlar yaratish davrida harbiy pedagogik fikr yanada rivojlanib bordi bular esa tegishli tajriba ko'rsatmalar, qo'llanmalar, nizomlar, buyruqlar va boshqa yozma manbalarda o'z aksini topdi.

Eng qadimgi harbiy tarbiyalash haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi sifatida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit Turk" kabi asarlari, shuningdek, Urxun- Yenisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan darak beradi. Eng qadimgi harbiy tarbiyalash haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi sifatida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit Turk" kabi asarlari, shuningdek, Urxun- Yenisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan darak beradi. Tarixga nazar tashlasak, komil inson xarakteri va xulq-atvori qanday degan masala bilan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr alForobiy, Abu Ali Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar o'z asarlarida Komil inson xarakteri, ezgu va odil xislatlarni uch xislatga jam qilganlar: " Saxo – bor narsani hech kimdan qizg'anmaslik; Safo – qalbni kibru – havo, gina - qudrat, qasd – g'azabdan poklash; Vafo – hamma vaqt xalq xizmatida bo'lish". Shunday qilib, Saxovatlilik faqat





moddiy yordam bilan emas, balki o'zgacha ilm ato etish bilan ham bo'ladi. Safolik (poklik) esa bironing qalbini nurga to'ldirish, Vafolik o'zganing baxtidan xushnud bo'lishidir. Demak, Komil inson o'z xarakteri, axloqi va odobi bilan o'zgani tarbiyalaydi, o'ziga baxt ato etadi. Uning xarakteri, axloqi jamiyatda tipikdir, xarakter tipiklashmasa komillik bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Harbiy ta'lim muassasalarida pedagogikmenejmentsamaradorligini oshirish uchun zamonaviy yondashuvga alohida e'tibor qaratish kerak. Harbiyta'limmuassasalarida asosan Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlanganshaxslarning ishigina tushuniladi. Harbiy ta'lim muassasalarida pedagogik menejment bo'yichamashg'ulotni, o'zlashtirishi, bilim, ko'nikmalar bilan qurollantirilishida zamon talabidankelibchiqibtayyorlanishi o'quvchilarga muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Электр токидан жароҳатланиш ва унинг инсон организмига таъсири
СМ Мардонова PROBLEMS OF BIOLOGY AND MEDICINE БИОЛОГИЯ
ВА ТИББИЁТ МУАММОЛАРИ 5, 2021
2. Mardonova, S. (2022). ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЗДАНИЯ И
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ УЧЕБНЫХ КУРСОВ В СИСТЕМЕ
ОБРАЗОВАНИЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4431
3. Соғлом авлодни тарбиялашда оилада соғлом муҳитни яратиш
СМ Мардонова Професионал таълим муассасаларида дуал таълимни
ташқил этишининг замонавий муаммолари, 2021
4. Inson salomatligiga zararli omillarning ta'siri va yoshlar o'rtasida sog'lom
turmush tarziga qo'yiladigan talablardan keng foydalanish M.S.Muzaffarovna Ilmiy
jurnali" Magistratura dasturining axborotnomasi 111, 2020 yil

